

# KOGNITIV TILSHUNOSLIK VA BOLALAR PSIXOLINGVISTIKASI ALOQASI

*Ilmiy rahbar: f.f.n dotsent U. E. Rahimov*

*Andijon davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi*

*Mo'tabarxon Ozodbek qizi Soibjonova*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola kognitiv lingvistika va psixolingvistika o'rtasidagi bog'liqlikni: bolalar ruhiyatida shakllangan kognitiv tushunchalar va bolalar psixologiyasining shakllantirgan auraga nisbatan tahlil orqali ochib berishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** tilshunoslik, antropotsentrik nazariya, psixolingvistika, bolalar, tafovut

## THE RELATIONSHIP OF COGNITIVE LINGUISTICS AND CHILD PSYCHOLINGUISTICS

*Scientific supervisor: Ph.D. associate professor U.E. Rahimov*

*Student of Philology Faculty of Andijan State University*

*Soibjonova, Motabarkhan Ozodbek qizi*

**Abstract:** This article aims to reveal the relationship between cognitive linguistics and psycholinguistics: cognitive concepts formed in the psyche of children and the aura formed by child psychology through analysis.

**Key words:** linguistics, anthropocentric theory, psycholinguistics, children, difference,

Tilshunoslikning rivojlanish bosqichlariga nazar tashlansa, turli xil inqiloblarni ko'ramiz. Bu tilshunoslik o'rganayotgan obyektlar va ularni o'rganishda foydalaniladigan metodlar bilan bog'liq. Yangi metodlar eski nazariyalarga ta'sir ko'rsatishi yoki uni to'ldirishi mumkin. XX asrning 70-yillarida "semantikaga shturm" boshlandi. Natijada semasiologik tahlil bilan bog'liq nazariy qarashlar

yuzaga keldi. Sistem tadqiqotlar kuchaydi. Tilshunoslik fani nazariy bilish bosqichiga ko'tarildi. Boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi haqidagi yangicha qarashlar yuzaga keldi. Ma'lumki, hech qaysi fan o'z qobig'iga o'ralgan holda rivojlana olmaydi. Tilshunoslik fani ham boshqa fanlar bilan munosabatdorlikda rivojlanadi. O'zaro aloqadorlikda yangi-yangi yo'nalishlar paydo bo'ladi. Bu yo'nalishlarning paydo bo'lishiga turli omillar ta'sir ko'rsatdi. Keyingi yillarda tilshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlar turli xil usullar, qarashlar nazariyalar asosidagi xilma-xil yondashuvlarga tayangan holda olib borilmoqda. Shunday yondashuvlar ichida tilning tub mohiyatini ochib berishga qaratilgan yo'nalish talaygina hisoblanadi. Ana shunday yo'nalishlardan biri tilga sistema sifatida yondashishdir. Ko'pgina adabiyotlarda sistemaviy tilshunoslik deb ham atalmoqda. Shu jihatdan F. de Sossyur lisoniy birliklar o'rtasidagi munosabat-larni assotsiativ va sintagmatik munosabatga ajratib, tilning hozirgi holatidagi birliklarini sintagma nazariyasi va assotsiativ nazariyaga kiritishni bilish kerakligini uqtiradi [1].

Endi hozirgi tilshunoslikdan gapiradigan bo'lsak, u ayni davrda mental bosqichga ko'tarildi. Shu jihatdan olib qaralganda, tilning o'ziga xos tomonlarini tahlil etishga qaratilgan tadqiqotlar ko'lami ortdi. Ayniqsa, tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi kommunikativ funksiyasi bilan bog'liq tomonlarini aniqlashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari kuchaydi. Misol uchun [1] ostida yaratilgan monografiya. Shuning uchun tilning o'rganilishiga qaratilgan avvalgi ishlarni qayta ko'rish va ularni yangi yo'nalishlar nuqtai nazaridan to'ldirishga ehtiyoj tug'ildi. Bugungi lingvistikaning zamonaviy yo'nalishlarining aksariyati **til-inson-olam** modeli asosida o'rganilyapti. Bunday o'rganishlarning tadqiqot obyekti inson omilidir. Inson omili asosida tilni o'rganishda antropolingvistik metoddan foydalaniladi. Bu esa antropotsentrik nazariyalarga murojaat qilishni talab etadi. Shuning uchun bugungi kundagi tadqiqotlar antropotsentrik nazariyaga asoslangan holda ish olib bormoqda va oldingi tadqiqotlarga qaytadan murojaat qilmoqda. Natijada nazariy bilish bosqichida o'rganilgan masalalar yangilik kasb etib qolmoqda [1].

Insonni munosabatini hamisha komil holda ushlab turuvchi vosita muloqot hisoblanib, unda insonlar o'z ichki kechinmalarini (g'azab, nafrat, muhabbat, mehr, shavqat) kabi bir qator tuyg'ularni izhor qilishda yoki bir biriga anglata olishda muhim vazifasini o'taydi. Bundan kelib chiqadiki, insonlar muloqot qilayotgan damda ularning gaplari va so'zlari ayni bir ohangda emas, balki bir qancha emotsiyalar bilan ham ifoda etilishi mumkin. Biroq muloqotda ta'sir natijasida vujudga kelgan ovoz temberi ham katta ahamiyat kasb etadi. Sodda qilib aytganda muloqot undagi vazifalarni, keng va tor tushunchalari haqida tilshunoslik nazariyasida ma'lumot beriladi.

Har bir inson biz bilganimizdek, o'sib ulg'ayib, hayotdagi bir nuqtada o'z o'rnini topib anglagunicha qancha vaqt va kuch, harakatlar talab etiladi. Asosiysi shundaki, har bir murg'ak tafakkurida, hatto salbiy kuchlar tomonidan ezilmagan, ya'ni hayotda hali qoqilmagan va o'z o'rnida qiyinchilik ko'rmagan bola uchun voyaga yetish uzoqroqqa cho'zilishi amrimahol. Bolalar va ulardagi yanglish tushunchalar, ikkilanishlik eng muhimi qo'rquv va haddan ortiq hovliqmacholik belgilari ularning eng asosiy ko'zga ko'rinadigon holatlari hisoblanadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ulardagi muammolarni yanada aniq qilib aytadigan bo'lsak, shu holatga bog'liq sabalarni ota-onalar to'g'ri yo'lga solishlari oq-u qorani toza anglatib bera olishlari va jismoniy kuch ishlatmasdan bolaning miyasini to'g'ri muhofaza qila olishi ularning eng oldi vazifalari deb bilsak yanglishmaymiz.

Zamon talabi bilan nazar soladigon bo'lsak, har bir davrning bolalari o'zgacha va ayni farqli rivojlanadi. Bunga misol qilib olishimiz mumkinki, texnologiyalar sivilizatsiyasining rivojlanish ko'rsatkichlari hali pastda turgan payt, ya'ni bizning tilimiz bilan bir qilib aytadigan bo'lsak, Mustaqillik davrida oldin dunyoga kelgan bolalar va ularning psixologiyasini bugungi bolalar bilan solishtiradigan bo'lsak yer bilan osmonchalik farqni sezishimiz mumkin. Bunga sabab esa jamiyat va muhitdagi o'zgaruvchanlik. Asrlar emas yillar o'rtasidagi renessans tafovutlarini ko'raylik, harakat qilmagan opz ustida ishlamagan insonni zamon chetga surib qo'yyapti. Asosan kundalik hayotimizda yoshi ulug'lar o'zlarining bolalik davriga

hozirgi bolalar kundalik hayotini solishtirib tarbiya berishga harakat qilishadi va ayni daqiqada qanchalik to'g'ri va xatoligini bir necha sabablar bilan ko'rsatishimiz mumkin.

Hammamiz rivojlanishiga ishonayotgan o'z ko'zimiz bilan ko'rib guvoh bo'layotgan raqamli texnologiyalar davri taraqqiyoti va uni shiddat bilan o'sishi bolalarga nafaqat ularga hatto kattalarga ham birdek o'z ta'sirini o'tkazayapti. Endi bu yerda bolalar va ularning psixologiyasi nuqtai nazaridan olib qarajak, uning markazida turuvchi boshqarish ko'effisienti yuqori bo'lib asosan bolaning tafakkuri deyarli, 60-70 % ni egallashga ulgurdi. Agar shu yo'sinda davom etadigan bo'lsa bola va undagi fikr-u hayollari, g'oyalari nutqi atrofidagi insonlar uchun munosabatlari va hammasi texnologiyaga bog'liq holda ishlatishadi va uning voyaga yetish davrida ham muammoli vaziyatlarni, aksari masalalarini ham o'z holicha texnologiya bilan birdek hal qilishga harakat qiladi.

Insonni rivojlanishida ya'ni bolani har qanday mahsulot bilan boqish ular xoh tabiiy xoh kimyoviy moddalarga to'la bo'lsin, ularni iste'mol qilayotganda katta e'tibor kerak. Chunki qabul qilinayotgan har bir mahsulot nafaqat bolaning tanasi, aksincha, miya faoliyatini o'stiradi yoki putur yetkazadi. 1960-1970 yillarga nazar soladigan bo'lsak, birinchidan

- Aholining ozligi;

Shuning uchun ham ko'p mahsulotlar tabiiyligi ko'proq e'tiborli bo'lgan. Ikkinchidan, bu paytda urbanizatsiya ya'ni shaharlashish hali rivojlanayotgan bir davrda chorvachilik mahsulotlari har bir uyda har bir ro'zg'orda foydalanishgan.

Albatta shunisi ma'lumki, bolaning miya faoliyati ko'proq foydali va medetsina tili bilan bir qilib aytadigan bo'lsak, vitaminlarga boy har bir yegulik miya faoliyatiga yetarlicha ta'siri bor.

Bolalarning psixolingvistikasi va uning rivojlanishida katta ro'l o'ynaydigan, eng yetuk soha bu ta'lim tizimi hisoblanadi. Bugungi ta'lim bilan XX XIX asr ta'lim tizimining ham o'ziga yarasha bir nechta asoslar bilan farqlanadi. Umuman olganda

psixolingvistikaning asosi tasdiqi va tasnifi nimalardan tashkil topishini anglab oladigan bo'lsak, aniq manbalarga tayanib shu aytish mumkinki, psixolingvistika uzoq 60 yil muqaddam AQSh da paydo bo'lgan shu bilan birga 1950-yilning oxiriga kelib Amerikalik olimlarning ko'pchiligi psixo-lingvistika terminini ko'proq hayotga tadbiq qilishda o'zlarini yuqori ko'rsatdi, ya'ni bu termin ham hayotning bir formulasi sifatida korinishni boshladi. Tabiiyki, bu hozirgacha davom etmoqda. Termining asosini aniqroq qilib aytganda, ilmiy olamga yoygan bu ikki insonlar Ch.E.Osguda va T.A.Sebeokalar hisoblanadi. Bu ikki olim psixolingvistika va undagi kirish qism ma'nolarini keng yoritgan holda o'z maqolalarini birgalikda bosib, ilm ahliga ovoza qilgan. Bugungi kunga kelib esa nafaqat Amerika olimlari, deyarli dunyoning eng oldi mamlakatlarida va rivojlanayotga davlatlarda, eng nufuzli dargohlarda bu sohani o'rganish va chuqur izlanishlar bilan bir necha muammoli masalalarni yechishga harakat qilayotgani yaqqol hayotimizda ayon bo'lyapti.

Asosiy nazarda tutgan mavzu shundan iboratki, bolalar bilan ularning psixologiyasini bir necha tomonlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, avvalo bolalar va o'zini tanib olishi yoki tilining chiqishidan boshlab uning tafakkuri ishlay boshlaydi, ya'ni hayoliy to'qima obrazlar oila, do'stlari umuman miya faoliyati to'la holiligicha ishlay boshlaydi. Yaponiyalik olim Masaru Ibuka o'zining "3 dan keyin kech" nomli kitobida bolaning tarbiyasiga oid bir necha ma'lumot va misollarni yetarlicha tushunarli holatda yetkazib bergan. U o'z kitobida shunday deydi: "Ota-ona yuragidagini bola bilmaydi", -deganlaridek, bolaning aytmoqchi bo'lganlarini eshitmay turib "uf" tortadigan ota-onalar bu bolaning yomon ekanligini ko'rsatadimi? Men bunga ota-onalarining o'zlari aybdor deb o'ylayman. Doktor Suzuki o'z farzandi bilan juda yomon munosabatda bo'lgan ona haqida aytib bergan. Ona umidsizlik bilan: "Nega Xudo menga yomon farzand yuborgan?!" –deb nolir ekan. Bir kuni doktor Suzuki unga: "Buning sababi uni doimo urushganingizda. U doim bezovta. Agar vaqti vaqti bilan siz ham o'z xatolaringizni tan olsangiz bolangiz sizni yaxshiroq tinglaydi va hurmat qiladi", -debdi. Bir muddatdan so'ng ona doktor Suzuki yoniga juda mamnun holatda kelib, o'z o'g'ilchasi bilan munosabatini

yaxshilaganini aytib beribdi“ Haqiqatdan ham inson bolasi toza tarbiyaga muhtoj ekanligini va shu bilan birga ota-ona bu vazifani mas’uliyat bilan xis qila olishi va ko’ngil bilan bajarishi bu dunyoda yana bir olim, daho inson yetishib chiqayotganidan dalolat beradi. Xulosa o’rnida shuni aytishimiz kerakki, bolalarda psixolingvistikaning qay darajada rivojlanishi va uning o’tish davriga qadar, o’z holida tarbiyani berish, to’g’ri yo’lga solish asosiy eng muhim vazifa sanaladi. Chunki bolalarniki bo’lgan har bir kelajakni rang barang va nihoyatta go’zal qilib yaratishda ham ota-onalarning harakati va e’tibori katta ahamiyat beradi.

Xulosa sifatida yuqoridagi fikrlarni yaxlitlayman. Bola tug’ilgan muhit , auraga ko’ra shakllanadi. Uni boshqa bir jamiyat a’zosiga yoki eski avlodga taqqoslab ko’rsatish u yashayotgan zamondagi imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanishga to’sqinlik qiladi. Bolaning kognitiv tushunchalari uni psixolingvistik xarakteriga ko’ra voqelikka aylanadi. Jamiyatning unga ta’siri, e’tibor va qiziqishlaridan kelib chiqib tilining kognitiv olami kengayib boradi. Umuman mazkur maqolani antropotsentrik markazida bolalar psixolingvistikasi yotadi

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. N. MAHAMMADJONOV. KOGNITIV TILSHUNOSLIKNING LINGVISTIK ASOSLARI. – Andijon 2019.
2. Masaru I. Uchdan keyin kech. – Akademya nashri. – Toshkent. 2019. – B.253
3. TAGMA’NO VA PRESUPPOZITSIYA HODISASINING PRAGMATIK TADQIQI (Abdulla Qahhor asarlari misolida) NRQ To’xtasinova, MTOQ Soibjonova - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
4. Mo'tabarxon Ozodbek qizi Soibjonova. (2022). THE CONCEPT OF SHAME IN THE WORKS OF ABDULLAH WRATH (BASED ON ABDULLAH QAHHOR'S STORY "THE WOMAN WHO DIDN'T EAT RAISINS"). <https://doi.org/10.5281/zenodo.6635466>

5. ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA MUHABBAT  
KONSEPTI (“Muhabbat” qissasi misolida) SSOGL Mahmudjonov, MTOQ  
Soibjonova - ... : Innovative, educational, natural and social sciences, 2022